Ключевые слова: «зелёная» трансформация, «зелёная» экономика, устойчивое развитие, экологическая политика, возобновляемая энергия, декарбонизация, ресурсная эффективность, экологические инновации, «зелёные» финансы, институциональные механизмы, ESG, охрана окружающей среды.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda ekologik muammolarning keskinlashuvi mamlakatlarni yangi rivojlanish modelini izlashga undamoqda. Iqlim o'zgarishi, resurslarning kamayishi va atrof-muhit ifloslanishi iqtisodiy siyosatda tub o'zgarishlarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, "yashil" transformatsiya iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim yo'nalishiga aylandi. "Yashil" transformatsiya — iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan tizimli o'zgarishlar majmuasidir.

Yurtimizda korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish, mahalliy xomashyo hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirish, O'zbekiston Respublikasi ichki bozorini iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan to'ldirish, shuningdek, ishlab chiqarish resurslarini kelajak avlod uchun saqlab qolish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni¹ iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida yangi bosqichni boshlab berdi [1]. Xususan, 2022–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar hajmini yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 20 foizga qisqartirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar belgilangan:

- yangi tashkil etilayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarda ifloslantiruvchi manbalarda samaradorligi 99,5 foizdan kam bo'lmagan chang va gaz tozalash uskunalari o'rnatish;
- xavflilik darajasi yuqori va o'rta bo'lgan metallurgiya, yog'moy, energetika hamda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi 24 ta yirik korxonada samaradorligi 95 foizdan kam bo'lmagan 144 ta chang-gaz tozalash uskunalari joriy etish;
- atmosfera havosiga ta'sir xavfi yuqori bo'lgan 44 ta sanoat korxonasining 50 ta ustuvor ifloslantiruvchi manbalarida avtomatik stansiyalar, ularga tutash hududlarda esa 12 ta statsionar kuzatuv punktlarini o'rnatish hamda ularni yagona geoaxborot ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilish;
- "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha maxsus jamg'arma tashkil etish va unga moliyaviy resurslarni jalb qilish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari hamda "O'zbekiston–2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PF-22-son Farmoniga² muvofiq [2] quyidagi yo'nalishlar belgilangan:

- 2026–2027-o'quv yilidan boshlab dual ta'lim tizimi asosida 14 ta hududda "yashil" texnikumlarni tashkil etish va ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish, o'rmon xo'jaligi, landshaft dizayni va ko'kalamzorlashtirish, cho'llanishga qarshi kurashish, gidrometeorologiya, chiqindilarni utilitatsiya qilish va qayta ishlash yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash;

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-22-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050787>



- Surxondaryo viloyatida 10 ming gektar maydonda “yashil” makon barpo etish hamda Sirdaryo viloyatida 84 kilometr uzunlikdagi “yashil devor” yaratish, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida jami 250 ming gektar, jumladan, Orol dengizining qurigan tubida 115 ming gektar maydonda daraxt va butalar ekish, 14 ta hududda botanika va dendrologiya bog‘lari hamda 20 ta soya-salqin sayr ko‘chalarini tashkil etish;

- “yashil” iqtisodiyotga o‘tish doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 34,8 foizga yetkazish, yangi generatsiya quvvatlarini elektr tarmoqlariga integratsiya qilish va energetika tizimi barqarorligini ta’minlash, shu asosda 2026-yilda 516,1 million AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiya va kredit mablag‘larini o‘zlashtirish, 164,4 km uzunlikdagi 220–500 kV havo elektr uzatish tarmoqlarini qurish hamda podstantsiyalar quvvatini 650 MVA ga oshirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy iqtisodchilar tadqiqotlari orasida Porter, M.E. va van der Linde, C. (1995) tomonidan yozilgan “Toward a New Conception of the Environment–Competitiveness Relationship” (Journal of Economic Perspectives) maqolasi alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotda ekologik innovatsiyalar, jumladan, “yashil” texnologiyalar uzoq muddatda korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishi asoslab berilgan. Shuningdek, innovatsion chiqindilarni kamaytirish texnologiyalarini joriy etgan kompaniyalarda operatsion xarajatlar o‘rtacha 10–15 foizga qisqarishi qayd etilgan [3].

Rennings, K. (2000) tomonidan chop etilgan “Redefining Innovation — Eco-Innovation Research and the Contribution from Ecological Economics” (Ecological Economics, 32(2)) maqolasida “eko-innovatsiya” tushunchasi va uning turlari chuqur tahlil qilingan. Muallif energiya samarador texnologiyalarni sanoatning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida e’tirof etadi [4].

Horbach, J., Rammer, C. va Rennings, K. (2012) tomonidan yozilgan “Determinants of Eco-Innovations by European Firms: The Role of External Knowledge Sources and International Environmental Regulations” (Environmental and Resource Economics, 52) tadqiqotida korxonalarda “yashil” innovatsiyalarni joriy etishda xorijiy texnologik transfer hamda davlat siyosatining muhim roli asoslab berilgan [5].

Mahalliy iqtisodchilar tadqiqotlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Ibragimov, M.T. va Abdurakhmanov, Q.S. (2019) tomonidan e’lon qilingan “Yashil iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishi” mavzusidagi maqolada O‘zbekistonda energiya tejankor texnologiyalarni joriy etishning huquqiy asoslari va iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sanoatda energiya sarfini 10–15 foizga kamaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi hamda bu jarayonda texnologik transfer va investitsiya resurslarini kengaytirish muhimligini ta’kidlaydi [6].

Karimova, D.R. (2021) tomonidan olib borilgan “Barqaror rivojlanish sharoitida sanoat innovatsion faoliyatining ekologik yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotda energiya tejankor texnologiyalarni joriy etishda davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg‘unlashtirish mexanizmlari taklif etilgan [7].

Adabiyotlarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, “yashil” innovatsion texnologiyalar global va milliy darajada transformatsiya strategiyalarining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida zamonaviy iqtisodiy tahlil va siyosiy-ijtimoiy baholashda keng qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. “Yashil” transformatsiya siyosatini shakllantirish, uni xalqaro amaliyot asosida tahlil qilish hamda milliy rivojlanish sharoitlariga moslashtirishda deduksiya va induksiya metodlari muhim ahamiyat kasb etdi.

Jumladan, umumiy nazariy yondashuvlardan O‘zbekiston sharoitiga xos xulosalar chiqarishda deduktiv usul qo‘llanildi, xalqaro amaliyot asosida umumshtirilgan qarashlarni shakllantirishda esa induktiv usuldan foydalanildi.

Shuningdek, abstrakt-mantiqiy fikrlash va ilmiy abstraksiya metodlari yordamida “yashil” transformatsiyaning mohiyati, tamoyillari va asosiy yo‘nalishlari chuqur tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Yashil” transformatsiya inson iqtisodiy faoliyatining umumiy mazmunini ifodalash bilan birga, barcha iqtisodiy faoliyatlar ekologik tamoyillar asosida amalga oshirilishi zarurligini nazarda tutadi. Ushbu yondashuv insonlar, korxonalar va tabiiy atrof-muhit o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy hamda ekologik muvozanatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, inson ehtiyojlari va rivojlanish talablari bilan uyg‘un holda atrof-muhitni muhofaza qilish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashni talab etadi.



“Yashil” iqtisodiyot va korxonalarning barqaror rivojlanishi oʻrtasidagi munosabatlar ekologik tamoyillarning iqtisodiy faoliyatga va jamiyat taraqqiyotiga taʼsiri bilan chambarchas bogʻliqdir. “Yashil” iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish hamda zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini oʻzida mujassam etadi. Korxonalarning barqaror rivojlanishi esa iqtisodiy faoliyat, ijtimoiy tizimlar hamda siyosiy yondashuvlarning uygʻunligi asosida umumiy rivojlanish shart-sharoitlarini taʼminlash bilan bogʻliqdir.

“Yashil” iqtisodiyotning asosiy maqsadlaridan biri barqaror rivojlanishni taʼminlash va ijtimoiy masʼuliyatni oshirishdan iborat. Korxonalar faoliyati hamda atrof-muhit samaradorligi oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni taʼminlash uchun “yashil” iqtisodiyot tamoyillari va barqaror rivojlanish strategiyalari uygʻun holda qoʻllaniladi. Bu esa energiya isteʼmolini kamaytirish, atrof-muhitni samarali muhofaza qilish hamda inson va tabiat oʻrtasidagi oʻzaro uygʻunlikni taʼminlashga xizmat qiladi.

“Yashil” transformatsiya jarayoni korxonalarning barqaror rivojlanishini taʼminlash bilan birga, davlat, ijtimoiy guruhlar va biznes subyektlari oʻrtasida hamkorlikdagi faoliyatni talab etadi. Korxonalar ekologik va ijtimoiy masʼuliyat asosida “yashil” iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon boʻladi. Ular iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy foyda va ekologik barqarorlik oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlashga xizmat qiladi hamda innovatsiyalarni joriy etish va bozor raqobatbardoshligini oshirish orqali barqaror rivojlanish modelini shakllantiradi [8].

“Yashil” iqtisodiyotga oʻtishning iqtisodiy vositalarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin (1-rasm).



1-rasm. “Yashil” iqtisodiyotga oʻtishning iqtisodiy vositalari³

Axborot vositalari. Axborot vositalari iqtisodiy subyektlarni “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish bilan bogʻliq maʼlumotlar bilan taʼminlashning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, jamoatchilikni suv va elektr energiyasini tejashning ahamiyati, atrof-muhitni muhofaza qilish zarurati toʻgʻrisida xabardor qilish, treninglar va targʻibot tadbirlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda iqlim oʻzgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi hamda resurslar tanqisligi kabi dolzarb ekologik muammolar sharoitida “yashil” iqtisodiyotga oʻtish muhim yoʻnalish sifatida namoyon boʻlmoqda.

Ekologik talablar. “Yashil” iqtisodiyot ekologik barqarorlik tamoyiliga asoslanadi. Resurs samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish orqali korxonalar oʻz ekologik taʼsirini minimallashtirishi va atrof-muhitga salbiy taʼsirni kamaytirishi mumkin. Bu esa ekotizimlarni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash va iqlim oʻzgarishiga moslashishda muhim ahamiyatga ega boʻlib, biznesning uzoq muddatli barqarorligini taʼminlaydi.

Resurs xavfsizligi va taʼminot zanjiri barqarorligi. “Yashil” iqtisodiyotga oʻtish barqaror manbalar, aylanma iqtisodiyot elementlari va resurslarni diversifikatsiya qilish orqali taʼminot zanjiri barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi. Cheklangan resurslarga bogʻliqlikni kamaytirish hamda taʼminot zanjiri amaliyotlarini takomillashtirish orqali korxonalar turli tashqi taʼsirlarga nisbatan barqarorlikni oshirishi va faoliyat uzluksizligini taʼminlashi mumkin.

Iqtisodiy imkoniyatlar. “Yashil” iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish korxonalar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi. “Yashil” texnologiyalar, barqaror infratuzilma hamda innovatsiyalarga yoʻnaltirilgan

3 Muallif tomonidan ishlab chiqildi.



investitsiyalar yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va global bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik toza mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabning ortib borishi korxonalar uchun yangi daromad manbalarini shakllantiradi.

Normativ-huquqiy muvofiqlik va xavflarni boshqarish. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan normativ-huquqiy talablar bilan uzviy bog'liq. Ushbu talablarga moslashish korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etib, ularning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi. "Yashil" tamoyillarni strategik va operatsion faoliyatga integratsiya qilish xavflarni kamaytirish, muvofiqlikni ta'minlash hamda biznes uzluksizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Manfaatdor tomonlar va ijtimoiy mas'uliyat. Zamonaviy sharoitda korxonalar manfaatdor tomonlar — mijozlar, investorlar, xodimlar va jamiyat tomonidan yuqori e'tibor markazida bo'lmoqda. "Yashil" amaliyotlarni joriy etish korxona obro'sini mustahkamlash, ishonchni oshirish va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa korxonalar va jamiyat o'rtasida barqaror hamkorlikni shakllantirishga imkon beradi.


Innovatsiyalar va raqobatbardoshlik. "Yashil" iqtisodiyot korxonalarda innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi biznes modellarini shakllantirishga turtki beradi. Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalar bozor sharoitida raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lishi, yangi bozor segmentlarini egallashi hamda iste'molchilar ehtiyojlariga moslashishi mumkin.

Hamkorlik. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni davlat, biznes va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni talab etadi. Korxonalar hukumat, nodavlat notijorat tashkilotlar va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda bilim, resurs va ilg'or tajribalarni almashish orqali barqaror rivojlanishga erishishi mumkin.

Shaffoflik va hisobdorlik. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishda shaffoflik va hisobdorlik muhim o'rin tutadi. Korxonalar atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlarini ochiqlash, barqarorlik maqsadlariga erishish bo'yicha natijalarni muntazam namoyish etishi zarur. Bu esa manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlash, ilg'or tajribalarni joriy etish va doimiy takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda "yashil" iqtisodiyot va uning tashkiliy-institutsional asoslari muhim va ko'p qirrali ahamiyatga ega. "Yashil" tamoyillarni joriy etish orqali korxonalar ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan birga, innovatsiyalarni rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va yangi qiymat yaratish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Hamkorlik, manfaatdor tomonlar ishtiroki va uzoq muddatli barqarorlikka yo'naltirilgan yondashuv orqali korxonalar "yashil" iqtisodiyotga o'tishda muhim rol o'ynaydi

(2-rasm).



2-rasm. "Yashil" iqtisodiyotni joriy etishning tashkiliy va institutsional asoslari⁴.

4 Muallif tomonidan ishlab chiqildi.



“Yashil” iqtisodiyotni joriy etishda tashkiliy va institutsional asoslar muhim o‘rin tutadi. Bunda quyidagi omillar alohida ahamiyat kasb etadi (2-rasm).

Bugungi kunda global ekologik inqiroz, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslar tanqisligi sharoitida “yashil” transformatsiya tamoyillari iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Shu bois, korxonalarni barqaror rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotning ahamiyati yuqori bo‘lib, u ekologik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Tashkiliy-institutsional asoslar orqali “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini samarali joriy etish uzoq muddatli barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta’minlash imkonini beradi.

Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, milliy boylarning ko‘payishiga, qayta tiklanuvchi resurslar ulushining ortishiga hamda ekologik risklarning kamayishiga olib keladi. Ushbu jarayon rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar o‘z resurslarini ochlik va kambag‘allikni qisqartirish, zarur infratuzilmani rivojlantirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga investitsiyalarni kengaytirish, shuningdek, mehnat bozori muvozanatini ta’minlashga yo‘naltirishlari zarur. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish va “yashil” o‘tish strategiyalari kambag‘allikni kamaytirish bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

1-jadval. Jahon mamlakatlarida CO₂ emissiyasi hajmining o‘zgarishi [9]

t/r	Mamlakatlar	Aholi jon boshiga CO ₂ chiqindilari (tonna)	CO ₂ chiqindilari (tonna, 2024-yil)	Aholi soni (2024-yil)
1	Xitoy	8,89	12 667 428 430	1 425 179 569
2	Amerika Qo‘shma Shtatlari	14,21	4 853 780 240	341 534 046
3	Hindiston	1,89	2 693 034 100	1 425 423 212
4	Rossiya	13,11	1 909 039 310	145 579 899
5	Yaponiya	8,66	1 082 645 430	124 997 578
6	Indoneziya	2,48	692 236 110	278 830 529
7	Eron	7,67	686 415 730	89 524 246
8	Germaniya	8,01	673 595 260	84 086 227
9	Janubiy Koreya	12,27	635 502 970	51 782 512
10	Saudiya Arabistoni	18,89	607 907 500	32 175 352
...	...	...	...	...
36	O‘zbekiston Respublikasi	3,79	132 433 520	34 938 955

Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Hindiston, Rossiya, Yevropa Ittifoqi va Indoneziya 2024-yilda dunyodagi eng yirik issiqxona gazlari chiqindilariga ega mamlakatlar qatoriga kiradi. Ular birgalikda dunyo aholisining 51,4 foizini, global yalpi ichki mahsulotning 62,5 foizini, qazilma yoqilg‘i iste’molining 64,2 foizini hamda issiqxona gazlari chiqindilarining 61,8 foizini tashkil etadi. O‘zbekistonda esa aholi jon boshiga CO₂ chiqindilari 3,79 tonnani tashkil etgan.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlar “yashil” iqtisodiyotga o‘tish orqali nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish, balki iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta’minlashga erishmoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, “yashil” transformatsiya jarayonlarini energetika, sanoat, transport va qishloq xo‘jaligi kabi asosiy tarmoqlarda joriy etish korxonalar uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda “yashil” transformatsiya va barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

- “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasini har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib moslashtirish;
- iqtisodiyotning tabiiy resurslardan foydalanishga yuqori darajada bog‘liqligini bosqichma-bosqich kamaytirish;
- ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish va innovatsion yechimlarni keng joriy etish;
- “yashil” iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish;
- “yashil” transformatsiyaga to‘sqinlik qiluvchi omillarni tizimli ravishda bartaraf etish.

Jahon iqtisodiyotining modernizatsiyalashuvi va yangi texnologik bosqichga o‘tishi globallashuv



jarayonining muhim harakatlantiruvchi omillaridan biridir. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yangi texnologik iqtisodiyot samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish bilan bir qatorda aholining turmush sifati hamda yashash muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatda "yashil" transformatsiya nafaqat ekologik muammolarni hal etish vositasi, balki iqtisodiyotni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadigan strategik rivojlanish modeli hisoblanadi. Ushbu jarayon iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

"Yashil" transformatsiyaning muhim xususiyati shundaki, u an'anaviy iqtisodiy tizimni transformatsiya qilib, resurslarga bog'liqlikni kamaytiradi hamda energiya va materiallar samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, past uglerodli iqtisodiyotga o'tish orqali iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "yashil" transformatsiya quyidagi strategik yo'nalishlarda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish orqali energetik xavfsizlikni mustahkamlash;
- sanoat tarmoqlarida resurs tejankor va ekologik toza texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish orqali ekologik yuklamani kamaytirish;
- "yashil" infratuzilmani rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish;
- investitsion jozibadorlikni oshirish orqali xalqaro kapital oqimini jalb etish.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida aniqlangan jihatlar "yashil" transformatsiyani jadallashtirish uchun tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Xususan, moliyaviy resurslardan foydalanishni kengaytirish, ilg'or texnologiyalarga kirishni yaxshilash, institutsional muhitni rivojlantirish hamda ekologik madaniyat darajasini oshirish ushbu jarayon samaradorligini yanada kuchaytiradi.

Mazkur yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadida quyidagi ustuvor choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- "yashil moliya" instrumentlarini, jumladan, "yashil" obligatsiyalar, subsidiyalar va soliq imtiyozlarini keng joriy etish;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash orqali milliy texnologik salohiyatni oshirish;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish;
- aholining ekologik madaniyati va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini kengaytirish;
- xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ilg'or tajribalarni joriy etish.

Umuman olganda, "yashil" transformatsiya qisqa muddatli natijalardan ko'ra uzoq muddatli strategik samaralarga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati kompleks yondashuv, samarali boshqaruv va barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtirokiga bog'liqdir.

Natijada, "yashil" transformatsiyani izchil amalga oshirish mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish, ekologik xavfsizligini ta'minlash hamda barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. — <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari hamda "O'zbekiston–2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PF-22-son Farmoni. — <https://lex.uz/docs/-8050787>
3. Porter, M.E., van der Linde, C. (1995). Toward a New Conception of the Environment–Competitiveness Relationship. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4).
4. Rennings, K. (2000). Redefining Innovation—Eco-Innovation Research and the Contribution from Ecological Economics. *Ecological Economics*, 32(2).
5. Horbach, J., Rammer, C., Rennings, K. (2012). Determinants of Eco-Innovations by European Firms. *Environmental and Resource Economics*, 52.
6. Ibragimov, M.T., Abdurakhmanov, Q.S. (2019). "Yashil" iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanishi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*.
7. Karimova, D.R. (2021). Barqaror rivojlanish sharoitida sanoat innovatsion faoliyatining ekologik yo'nalishlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*.
8. Qin, Y., Li, J. (2023). Research on Sustainable Development of China's Green Enterprise Economy. *American Journal of Economics and Business Innovation*, 2(2), 86–92.
9. Jahon mamlakatlarida CO₂ emissiyasi hajmining o'zgarishi. — <https://www.worldometers.info/co2-emissions/co2-emissions-per-capita/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
